

SOTSIAL MANIPULYATSIYA FENOMENI VA INFOSFERA

Maftunaxon Saidova,

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Axborot sohasida sotsiologiyaning yo‘nalishlaridan biri sifatida jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot muhim axloqiy omil hisoblanadi. Har bir mamlakatda axborot jarayoni o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi. Aholining, ayniqsa, yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta‘minlashning ijtimoiy-madaniy omillarini o‘rganish tadqiqot ob‘ekti hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: manipulyatsiya, hodisa, infosfera, jarayon.

THE PHENOMENON OF SOCIAL MANIPULATION AND THE INFOSPHERE

ABSTRACT

Information sphere as one of area of sociology is important moral factor of social development of society. Process of informing in each country occurs its specificity. Investigating of social-cultural factors of informational-psychological security of population especially youth is actuality of research.

Keywords: Manipulation, phenomenon, infosphere, process.

ФЕНОМЕН СОЦИАЛЬНЫХ МАНИПУЛЯЦИЙ И ИНФОСФЕРА

АННОТАЦИЯ

В информационной сфере как одним из направлений социологии является важным моральным фактором социальное развитие в обществе. Процесс информирования в каждой стране проявляется в его специфике. Исследование социокультурных факторов информационной психологической безопасности населения, особенно молодежи, является предметом исследования.

Ключевые слова: манипуляция, феномен, инфосфера, процесс.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlariyoq, odamlarda bir-biriga ta’sir ko‘rsatish, o‘zining fikrini atrofdagilarga singdirish ehtiyoji vujudga kelganini kuzatamiz. Jamiyatdagi hech bir shaxs yoki inson o‘z-o‘zicha, boshqalar bosib o‘tgan yo‘llardan yurmay turib yashashi mumkin emas. Mazkur tabiiy jarayonda kimdir boshqaruvchi, kimdir esa boshqariluvchi vazifasini bajaradi.

Nemis faylasufi, neofreydizm namoyondalaridan biri Erix Fromm jamiyat vakillarning o‘zaro munosabatlarini, odamlar ustidan hukmrolilik qilish yoki aksincha, birovlar izmiga bo‘ysunish ishtiyoqini quyidagicha ta’riflagan: “Ular boshqalarning buyruqlariga osongina itoat qiladilar, garchi bu o‘zlariga zarar keltirsa-da. Qat’iyat bilan aytilgan har qanday axmoqona fikrga ergashadilar, sarkarda aytdimi, bas, vayronkorlikdan boshqa narsa bo‘lmagan urushga ham otlanaveradilar... Aksariyat odamlar, mudrab yotgan go‘daklar singari, ularga do‘q-po‘pisa qilgan yoki ayyorlik bilan muomalada bo‘lgan har qanday kimsaning ta’siriga osongina tushib, beixtiyor ortidan ergashadigandek tuyuladi. O‘z fikrlarida sobit turuvchi, olomon irodasiga qarshi bora oladigan inson, qoida emas, ko‘proq istisno tarzida uchrashi mumkin”¹.

Shaxs tafakkuri, e’tiqodi hamda qadriyatlariga oshkora yoki yashirin bosim o‘tkazish, balandparvoz so‘zlar bilan uni muayyan g‘oyaga og‘dirish turli maqsadlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyat eshiklarini ochadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Demokratiya, fuqarolik jamiyati singari atamalar odamlar ongida chuqur o‘rnashib, jamoatchilik fikri davlat boshqaruvi hamda hukumat idoralari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgani sayin, siyosiy elita vakillari, davlat rahbarlari uni o‘z foydasiga o‘zgartirish uchun harakat qila boshladilar. Biroq, internetga ulanish va videokameradan foydalanish imkoniyati – tabiiy voqelik bo‘lgan hozirgi sharoitda odamlarni hayron qoldirish, nimagadir ishontirish juda qiyin. Aynan shuning uchun ommaviy axborot vositalari faoliyatida turli hiylalar, manipulyatsion usullarni qo‘llash tendensiyasi kuchayib ketdi. Zero, AQShning yetakchi sotsiologlari P. Lazarsfeld va R. Merton aytganidek, “jamiyatdagi qarash va maslamlarni nazorat qiluvchi odamlar jismoniy zo‘ravonlik emas, ommaviy gipnoz usulidan ko‘proq foydalana boshladilar”².

Manipulyatsiya siyosiy hamda kommunikatsion texnologiya sifatida o‘z mavqeyi va o‘rniga ega. Ayni paytda kimningdir manfaatini himoya qilmaydigan, auditoriyani u yoki bu faoliyatga (yoki faoliyatsizlikka) undamaydigan jurnalistni topish juda qiyin. Axborot olish va tarqatish imkoniyatlari kengaygan, raqobat kuchaygan bir sharoitda buni tabiiy hol deb qabul qilish kerak. Axborot siyosiy hayotning ajralmas bo‘lagiga aylanib bo‘ldi va u “davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. Bunda axborot ham demokratik hokimiyat

¹Фромм Э. Духовная сущность человека. Способность к добру и злу. М.: 1988. Стр. 56

²Кара-Мурза С. Г. Манипуляция сознанием. – М.: “Эксмо”, 2003. Стр. 45

manbai, ham siyosiy tizim va jarayonlarni boshqarish omili bo'lib maydonga chiqadi"³.

“Xorijiy so‘zlar lug‘ati”da berilgan ma‘lumotga ko‘ra, manipulyatsiya (*fr. Manipulation — lot. Manipulatio — manipulus, ya‘ni “hovuch, siqim”*) — 1) qo‘l harakati, u orqali ko‘zlangan maqsadni amalga oshirmoq; 2) ko‘zboylamachilik (*fokus ko‘rsatmoq*), qo‘lning favqulodda epchilligi evaziga tomoshabinlar nigohini shamg‘alat qilmoq, bir lahza fikrlashdan to‘xtatib qo‘ymoq; 3) yashirincha firibgarlik, nayrang singari ma‘nolarni anglatadi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo‘llanilishi nuqtai nazaridan, manipulyatsiyani odamlarni aqlni chalg‘ituvchi, fikrni beqaror holatda ushlab turuvchi kuch ta‘siriga tushirish, deya baholash mumkin.

Aksariyat rus olimlari, S. Kara-Murzaning manipulyatsiya haqidagi qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan holda G‘arb, xususan Amerika OAVni “ongni zaharlovchi mashina”, “ruhiy terror vositasi” kabi ta‘riflar bilan yonma-yon qo‘yadi, auditoriyani esa axborotni passiv qabul qiluvchi kishilar uyushmasidan iborat, deb hisoblaydi:

“Muvaffaqiyatli manipulyatsiyaning birinchi (ehtimol asosiy) sharti shundaki, ko‘p hollarda fuqarolarning aksariyati xabarlarining to‘g‘riligidan shunchaki shubhalanish uchun na ruhiy va aqliy quvvati, na vaqtini sarflagisi keladi. Chunki, passiv ravishda axborot “oqimi” bilan birga “suzish”, har bir signalni tanqidiy nuqtai nazardan qabul qilishga qaraganda ancha oson”⁴. Axborot xurujlari uyushtirish aybini okeanorti mamlakatiga yuklab qo‘yish “amaliyoti” milliy mabuotimizda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. “... ko‘p qutbli dunyo tobora reallashib bormoqda. Lekin G‘arb o‘sha ko‘p qutbli dunyoni ham o‘z ta‘sir doirasidan chiqarib yubormaslikni istaydi va manfaatlarini o‘z chegarasidan minglab chaqirim narida himoya qilish uchun jug‘rofiy siyosat yurgizadi”⁵.

“Ma‘lumki, aksariyat G‘arb jurnalistlari biryoqlama tanqidga hiyla o‘ch bo‘ladi. Shov-shuv, sensatsiya hukmron bo‘lgan muhitda kimnidir badnom etish, sha‘nini yerga urish, odatiy hol o‘laroq qabul qilinadi. Ba‘zida esa bunga xolislik va jonkuyarlikdan ko‘ra g‘arazgo‘ylik mayllari ko‘proq aralashadi”⁶.

Manipulyativ texnologiyalarning asosiy yutug‘i shundaki, ular inson huquqlari yoki jurnalistik faoliyat bilan bog‘liq qonunlarning hech biriga zid emas. Fuqarolarning axborot olish, so‘z hamda fikr erkinligi barcha demokratik davlatlar konstitutsiyasida, xususan, Inson huquqlari deklaratsiyasida ham aniq belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi

³Каримов Ф. “Демократия ва миллий ахборот тизими”/ “Tafakkur” 2010 йил, 2-сон, 71-б.

⁴Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – М.: “Эксмо”, 2003. Стр. 20

⁵Низомов Ф. “Манфаат ва холислик” / “Tafakkur” 2009 йил, 3-сон.

⁶Ёқубов С. “Ахборот жамияти: ҳаёлот эмас, ҳақиқат”/ “Tafakkur”, 4-сон, 2007 йил

qonunining 12-moddasida hamma yerkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni internet jaxon axborot tarmog'ida tarqatish huquqi kafolatlangan⁷.

XULOSA

Biz erkinlikka intilganimiz, demokratik tamoyillar asosida yashaganimiz sari, erkin axborot olish imkoniyatimiz kengayadi. Biroq, axborot manbalariga qanchalik ko'p murojaat qilsak, manipulyatsiya "qurboni"ga aylanish, birovlarining maxfiy "buyruqlar"iga itoat qilish xavfi ham ortib boradi! Bu – axborot olish erkinligi tufayli yuzaga kelgan paradoksal holat.

Demokratiya sharoitida global infomakon jug'rofiy-siyosiy qarama-qarshilik maydoniga aylanadi va bu vaqtda milliy axborot tizimining bosh vazifasi – shaxs, jamiyat va davlatni mazkur maydonning salbiy ta'siridan saqlash bo'ladi"⁸.

Omma ongida noto'g'ri tushunchalarni shakllantirish, "oqni qora" qilib ko'rsatish, jamoatchilikni soxta g'oyalar ortidan ergashtirish noto'g'ri qarorlar qabul qilishga, jamiyat hayotining izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Buni Ikkinchi jahon urushi hamda Sobiq sotsialistik tuzum parchalanishi misolida ko'ramiz. Yuqoridagi sabablar manipulyatsiya hodisasini jiddiy o'rganish, va uning salbiy oqibatlarini imkon boricha yumshatish choralari ko'rish uchun yetarli asosdir.

REFERENCES

1. Фромм Э. Духовная сущность человека. Способность к добру и злу. М.: 1988. Стр. 56
2. Кара-Мурза С. Г. Манипуляция сознанием. – М.: "Эксмо", 2003. Стр. 45
3. Каримов Ф. "Демократия ва миллий ахборот тизими" / "Tafakkur" 2010 йил, 2-сон, 71-б.
4. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – М.: "Эксмо", 2003. Стр. 20
5. Низомов Ф. "Манфаат ва холислик" / "Tafakkur" 2009 йил, 3-сон.
6. Ёқубов С. "Ахборот жамияти: ҳаёлот эмас, ҳақиқат" / "Tafakkur", 4-сон, 2007 йил
7. Ахборотлаштириш тўғрисидаги Ўзбекистон республикаси қонуни 11.12.2003 йил
8. Каримов Ф. "Демократия ва миллий ахборот тизими" / "Tafakkur" 2-сон, 2010 йил.

⁷ Ахборотлаштириш тўғрисидаги Ўзбекистон республикаси қонуни 11.12.2003 йил

⁸ Каримов Ф. "Демократия ва миллий ахборот тизими" / "Tafakkur" 2-сон, 2010 йил